



**AUTIZM SPEKTIRI NUQSONIGA EGA BO'LGAN  
BOLALARNING NOVERBAL MULOQOT KOMPONENTLARINI  
ZAMONAVIY LOGOPEDIK METODIKALAR ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH**

*Muhammadsharipova Nafisa Saidakbarovna- Nizomiy nomidagi  
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya yo'nalishi 4-bosqich  
talabasi*

*Ilmiy rahbar: Mamatova Aziza Bo'riboevna -Nizomiy nomidagi  
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Logopediya kafedrasi pedagogika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Annotatsiya. Maqolada autizm nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda noverbal muloqot komponentlarini rivojlantirish yuzasidan zamonaviy metodikalarni qo'llash yuzasidan logopedik tavsiyalar berilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: autizm sindromi, nutq va muloqot, psixoterapiya, PECS kartochkalari, ABA, TEACCH, noverbal, sensor integratsiya, exolaliya, apraksiya, mutizm, prosodika, holding-terapiya, Son-Rise metodikasi, evritmiya metodikasi.*

*Ключевые слова: синдром аутизма, речь и коммуникация, психотерапия, карточки PECS, АВА, TEACCH, невербальная коммуникация, сенсорная интеграция, эхолалия, апраксия, мутизм, просодика, холдинг-терапия, метод Son-Rise, метод эвритмии.*

*Keywords: autism syndrome, speech and communication, psychotherapy, PECS cards, ABA, TEACCH, nonverbal communication, sensory integration, echolalia, apraxia, mutism, prosody, holding therapy, Son-Rise method, eurythmy method.*

**KIRISH.**

Autizm spektridagi buzilishlar (ASB) bolaning ijtimoiy muloqotga kirishishi, og'zaki va og'zaki bo'lmagan nutq orqali fikr bildirish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan neyropsixologik rivojlanishdagi o'ziga xoslikdir. Ushbu kasalliklar



global miqyosdagi barcha sog'liq muammolarining 11 foizini tashkil qiladi. JSSTning ta'kidlashi cha, Xitoyda kamida 1,100,000 autizm holatlari, Buyuk Britaniyada 650,000, Filippinda 500,000 va Tailandda kamida 180,000 holatlar mavjud. Dunyo bo'ylab autizmning tarqalish darajasi har yili 14% ga oshib bormoqda. Xitoyda autizm bilan kasallanish darajasi yiliga 20% atrofidadir. 2000-yilda autizm tarqalishi har 10000 bola populyatsiyasiga 5 dan 26 gacha bo'lgan deb taxmin qilingan. 2005-yilda esa ushbu ko'rsatkich 250-300 yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'rtacha bitta autizm holati to'g'ri kelgan. Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) muammoning chuqurligini va jamiyat uchun oqibatlarining og'irligini tushunib, 2-aprelni Xalqaro "Autizm to'g'risida axborotlarni tarqatish kuni" deb e'lon qildi. 2012 yilda Amerika Shtatlaridagi kasalliklarni nazorat qilish markazi har 88 bolaga o'rtacha 1 ta autizm holati haqida xabar berdi. O'n yil ichida autizimli bolalar soni 10 baravar ko'paydi.

No	Mualliflar	Erta bolalar autizmining ta'rifi
1. 1	Fransuz tadqiqotchisi J.M. Itar (1828)	"Intellektual mutizm" deb nomladi va bu bilan autizmning asosiy belgilaridan biri — buzilgan intellektda nutqning rivojlanmaganligi yoki orqada qolishini ajratib ko'rsatdi.
2. 2	E. Bleyler (1912)	Fanga "autizm" terminini kiritdi va unga kishining emotsional ehtiyojlari tomonidan boshqariladigan hamda real voqelikka bog'liq bo'lmagan tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi sifatida ta'rif berdi.
3. 3	L. Kanner (1943)	ABA — muloqot (nutq, motorika)ning buzilishi bilan kechadigan alohida holat bo'lib, u "shizofrenik spektr" deb atalgan holatlar qatoriga kiradi.



4.. 4	K.S. Lebedinskaya	Reallikdan uzilish, o'zidan uzoqlashish, tashqi taassurotlarga nisbatan reaksiyalarning yo'qligi yoki qarama-qarshiligi, muhit bilan aloqalarda loqaydlik yoki o'ta ta'sirchanlik.
-------	-------------------	--

## MUXOKAMA VA NATIJALAR

Autizm spektridagi bolalarning verbal va noverbal muloqotini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb tus olgan. Ammo korreksion ish olib borish bir muncha qiyin kechadi. Shunga qaramasdan pedagog o'z mahoratini ishga solgan holda va bolaning konstitutsional kelib chiqishiga ko'ra ish olib borsa maqsadga erishish birmuncha tez va samarali bo'ladi. Autizmli bolalar uchun muloqot faqat so'zlar bilangina cheklanmaydi. Noverbal muloqot — ya'ni imo-ishoralar, yuz ifodalari va tana tili — bolalarning o'zini ifodalashi, boshqalar bilan bog'lanishi va atrof-muhitni tushunishida muhim rol o'ynaydi. Autizmli ayrim bolalar uchun noverbal ko'nikmalar qiyin bo'lishi mumkin, ammo ular munosabatlar qurish va rivojlanish uchun juda muhim poydevordir. Ivar Lovas ABA – (Applied Behavior Analysis) asoschisi. Doktor Ivar Lovaas va uning Kaliforniya universitetidagi shogirdlari 1963 yildan boshlab bolalar bilan xulq-atvorga asoslangan metodikalarni qo'llaydilar. Mazkur usulning vazifasi ikkita: bolada o'qish istagini uyg'otish va unda ta'lim olish imkoniyatiga ega ekanligi tushunchasini shakllantirishga yordam berishdan iborat. Autizmda ABA terapiyaning o'рни katta, ushbu usul orqali autizmdagi ham nutqiy ham nonutqiy kamchiliklarini bartaraf etishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotchi ABA terapiya orqali bolalarda noverbal muloqotni vizual stimullar, kartochkalar, predmetlar orqali rivojlantirishni ilmiy asoslagan.

**Son-Rise metodikasi.** Son-Rise metodikasi tamoyillari (ko'pincha uni «Son-Rise dasturi» deb ham ataydilar). Autizmga ega bo'lgan bolalarga yordam berishga mo'ljallangan Son-Rise dasturi er-xotin Barri va Samariya Kaufman tomonidan 30 yillar ilgari ishlab chiqilgan. Ularning farzandlaridan biri autizm kasalligiga ega edi.

O'ta qo'rqoq va ko'p cho'chiydigan bolalar uchun aynan bu metodika kattalarning asta-sekin va ehtiyotlik bilan qo'shib borishi hisobiga pedagog bilan



munosabat o'rnatishga yordam beradi. Chunki muloqot o'rnatish qobiliyati har qanday ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi. Son-Rise metodikasi bo'yicha hurmat va chuqur g'amxo'rlik bolada ta'lim olishga nisbatan motivatsiyaning uyg'onishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardandir. Shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichlaridan pedagog tomonidan bolaga nisbatan muhabbat namoyon etilishi va uni boricha qabul qilish har qanday ta'limiy mashg'ulotning muhim qismidir. Bu metodikaning kuchli tomonlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: bolaning qaytariluvchan (autostimulyatsiyalar) va odatiy harakatlarini (masalan, obyektlarni bir qator terib chiqishi) uning xulq-atvorining sabablarini bartaraf etish hamda ko'z aloqasini o'rnatish, ijtimoiy rivojlanishi va boshqalarning o'yinga qo'shilishi imkoniyatini kuchaytiradi. Bolaning shaxsiy motivatsiyasidan foydalanish ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

**Evritmiya metodikasi.** Ushbu metodika ham autizm bilan og'riqan har qanday bola uchun, buzilishning og'irligidan yoki intellektual darajasidan qat'i nazar, mos keladi. Ushbu terapiyadan o'tgan ko'proq qobiliyatli bolalar ommaviy maktablarga qaytarilishi mumkin, u yerda ularga ijtimoiy empatiya va ijtimoiy moslashuvni ko'proq rivojlantiradigan boshqa usullar orqali yordam ko'rsatiladi, ammo yuqori darajada. Kam qobiliyatli bolalar uchun yuqori darajadagi muloqotning mavjudligi ham ta'lim va ijtimoiylashuvda katta yutuqlarga erishish imkonini beradi. Evritmiyaning maqsadi: autik bolaga o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan ma'lum chegaralarni taqdim etish, bu normal chaqaloq uchun muloqotning tabiiy turi hisoblanadi va shu bilan keyingi nutq rivojlanishi uchun dialogik muloqot namunasini yaratadi.

**Sensor integratsiya va rag'batlantirish (SIR)** metodikasi (predmetli terapiya). Sensor integratsiya va rag'batlantirish metodikasi Kaliforniya universitetining mehnat terapiyasi bo'yicha mutaxassisi Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. U nevrologik buzilishlari mavjud bo'lgan bola va katta yoshdagilar bilan ishlagan. Rossiyada mazkur metodika nima uchundir «predmetoterapiya» nomini olgan. Mazkur metodika asosidagi rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar bir kunda 2–3 marotaba o'tkaziladi, uning mazmuni 3–4 oyda bir marotaba qayta ko'rib chiqiladi.



Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, yangi turdagi qo'zg'atuvchilar kiritib boriladi, muayyan muvaffaqiyatlarga erishilganda esa kognitiv trening elementlari ham qo'shiladi. Mazkur metodika Daun sindromi, nutqiy rivojlanishda orqada qolgan (NROQ), bolalar serebral falaji (BSF), autizm sindromiga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion maqsadlarda qo'llanilganda samaralidir. Autizmga ega bo'lgan bolalar o'ta ta'sirchan yoki e'tiborsiz bo'ladilar, shuningdek o'z tuyg'ularini integratsiya qila olmaydilar. Shuning uchun ham hozirgi kunda sensor integratsiyani qo'llash keng qo'llanilib kelinmoqda. Sensor integratsiya orqali autis bolalardagi ortiqcha fobiya, isterik holatalarni bartaraf etishimiz birmuncha onson kechadi.

Autizmda nutqiy bo'lmagan logopedik-korreksion dastur quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum pedagogik vazifani bajarishga yo'naltiriladi.

Ish bosqichi	Mashg'ulot mazmuni	Maqsadi
Tayyorlov bosqich	Yengil harakatli mashqlar, nafasni faollashtirish	Organizmni mashg'ulotga tayyorlash
Umumiy motorika	Muvozanat mashqlari, koordinatsion harakatlar	Tana boshqaruvini rivojlantirish
Mayda motorika	Barmoq o'yinlari, predmetli harakatlar	Qo'l-barmoq muvofiqligini oshirish
Sensomotor ish	Ritmik va sezgi mashqlari	Nutq va harakat uyg'unligini ta'minlash
Yakunlovchi bosqich	Bo'shashtiruvchi mashqlar	Emotsional barqarorlikni ta'minlash

Logopedik mashg'ulotlarda umumiy va mayda motorikani rivojlantirish — nutq buzilishlarini korreksiyalashning ilmiy asoslangan va ajralmas qismidir, shuningdek noverbal muloqot verbal muloqotning ustunidir. Harakat, sezgi va nutqning kompleks rivoji orqali bolalarda artikulyatsiya aniqligi, nutqning ritm-



tempi, lug‘at boyligi va grammatik tuzilishi samarali shakllanadi. Shu bois motorika mashqlari har bir logopedik mashg‘ulotning tarkibiy qismi bo‘lishi lozim.

## **Autizmlı bola bilan ishlovchi logoped va defektologlar uchun tavsiyalar**

Mutaxassislar malaka oshirish kurslarida maxsus “Autizm” kursini o‘qishlari lozim. Ta‘lim va tayyorlov o‘z ichida besh asosiy sohani qamrab oladi. Ta‘lim va tayyorlovning birinchi sohasi autizmga oid nazariy bilimlardan iborat. Nazariy yo‘nalish diagnostika va belgilab olish sohasini o‘z ichiga oladi.

Ta‘limning ikkinchi sohasi autizmga ega bo‘lgan mijozni tashxis qilishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi soha autizmga nisbatan atrof-muhitning moslashtirilishini qamrab oladi (bilimlar muqobil tizimining rivojlanishi).

To‘rtinchi soha funkcionallikdan iborat. Shuni unutmaslik lozimki, autizmga ega bo‘lgan insonlar biz qanday funkcionallik ko‘nikmalarga o‘rgatgan bo‘lsak, shularnigina o‘rganadi.

Beshinchi soha “o‘qitish va ta‘lim usullari qay tarzda autizmlı bolaga moslashtirilishi lozim” degan savolga taalluqli. Maxsus ta‘lim dastlab ko‘zi ojiz va zaif eshituvchilar uchun ishlab chiqilgan edi. Autizmga ega bo‘lgan bolalar uchun shunga o‘xshash tizimning ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi, ehtimol, eng muhim vazifadir, chunki hech kim bunga an‘anaviy maxsus ta‘lim orqali tayyorlanmagan.

## **XULOSA**

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, autizmlı insonlarga nisbatan yondashuv ularning kamchiliklarini tuzatishga emas, balki ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mustaqil va erkin yashashi uchun sharoit yaratishga qaratilishi kerak. Shu sababli, ilmiy asoslangan psixologik-pedagogik korreksion texnologiyalarni ishlab chiqish, mutaxassislarni zamonaviy metodikalardan foydalanishga o‘rgatish hamda xorijiy tajribani o‘rganib amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shundagina autizmlı bolalarning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va ularning imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etishiga erishish mumkin.



## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pechnikova L. S. "Erta bolalik autizmi bo'lgan bolalarga ona munosabatining o'ziga xos xususiyatlari"- 2009. "Moskova" 715-b
2. Baenskaya E. R. "Autizmli bolalarning erda affektiv rivojlanishining xususiyatlari"-2003. "Psychology" 32-37-b.
3. Vedenina M.Yu. "Autizmli bolalarda ijtimoiy va kundalik ko'nikmalarni shakllantirish uchun xulq-atvor terapiyasi usullarini moslashtirish"-2000. 114- 130 b.
4. Евсева О.Э., С.П. Евсеев Технологии физкультурно-спортивной деятельности адаптивной физической культуре: учебник /// М.: Спорт.2016, 384- б
5. Колпакова А.А. Ранний детский аутизм // Аллея науки. 2018.Т.2 (18).С. 713-б.
6. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.:«Владос», 2013.83-б.
7. Egamberdiyeva N. A. "Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish " . "Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim tarbiya jarayoniga tatbiq qilish yo'llari " mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 1 TOM. 2023-yil. 278-282-betlar.